

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BOTANIKA INSTITUTI**

**ORTIKOV ELYOR ABDUMAJIDOVICH**

**O‘ZBEKISTON FLORASIDA TARQALGAN *IRIS* L. TURKUMI**  
**TURLARINING FILOGENIYASI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Ortikov Elyor Abdumajidovich**

О‘zbekiston florasida tarqalgan *Iris* L. turkumi turlarining  
filogeniyasi..... 3

**Ортиков Элёр Абдумажидович**

Филогения видов *Iris* L., распространенных во флоре Узбекистана.  
..... 17

**Ortikov Elyor Abdumajidovich**

Phylogeny of *Iris* L. species distributed in the flora of Uzbekistan  
..... 33

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 36

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BOTANIKA INSTITUTI**

**ORTIKOV ELYOR ABDUMAJIDOVICH**

**O‘ZBEKISTON FLORASIDA TARQALGAN *IRIS* L. TURKUMI  
TURLARINING FILOGENIYASI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/B726 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb sahifasida ([www.botany.uz](http://www.botany.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xasanov Furqat Orunbayevich**

biologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Duschanova Guljon Madrimbayevna**

biologiya fanlari doktori, professor

**Ayubov Mirzakamol Sobitjonovich**

biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "21" fevral kuni soat 13<sup>30</sup> dagi majlisida bo'lib o'tdi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: [botany@academy.uz](mailto:botany@academy.uz)).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" fevra kuni tarqatildi.  
(2025-yil "10" fevral. 1-raqamli reyestr bayonnomasi).



**K.Sh. Tojibayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

**U.H. Qodirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, b.f.f.d PhD, kata ilmiy xodim

**X.F. Shomurodov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., prof.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda molekulyar biologiya, xususan, DNK darajasidagi tadqiqotlar, taksonomiyada, seleksiyada, bioxilma-xillikni saqlash va baholashda, evolyutsiyada muntazam qo'llaniladigan yo'nalishlardan biridir. An'anaviy morfologik usullar orqali qiyin tasniflanadigan yoki noto'g'ri joylashtirilgan turlarni molekulyar filogeniya orqali aniqlash mumkin. Bu esa o'simliklar tasnifi va nomenklaturasini yangilashga xizmat qiladi. Ayniqsa, ko'rinishi bir-biriga o'xshash, ammo genetik jihatdan farqli turlarni ajratishda muhimdir. O'simliklarning genetik xilma-xilligini o'rganish yangi navlarni yaratish va hosildorlikni oshirishda muhim. Molekulyar filogeniya qishloq xo'jaligi o'simliklarining yovvoyi ajdodlarini aniqlash, ularning genetik resurslarini saqlash va seleksiya ishlarini samarali olib borishga yordam beradi. O'simliklarning molekulyar filogeniyasi ekologik muhitda turlar orasidagi aloqalarni o'rganishga yordam beradi. Bu biologik xilma-xillikni tushunish va yo'qolib borayotgan turlarni saqlab qolish uchun strategiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Turlarni identifikatsiya qilishda an'anaviy uslublarga tayangan holda, morfologik belgilarga ko'ra (gul, barg, poya va h.k) (botaniklar), yoki kimyoviy tarkibiga ko'ra (alkaloid, flavonoid, kumarin) turni aniqlash har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Bunday hollarda turlarni identifikatsiya qilishda genomning qisqa standart ketma-ketliklaridan (DNK) foydalanish eng maqbul metod sanaladi. Biologik xilma-xillikni saqlash, o'simliklarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish jahondagi global muammolardan biri hisoblanadi. Iqlim o'zgarishlari, antropogen va abiotik omillar ta'siri natijasida ekotizimlarda sodir bo'layotgan jarayonlar mahalliy biologik xilma-xillik, tadqiqotlariga yanada katta e'tibor qaratish lozimligini talab etmoqda.

*Iris* L. turkumi Yevrosiyo, shimoliy Afrika va shimoliy Amerikada tarqalgan 270 dan ortiq turni o'z ichiga oluvchi Iridaceae oilasining eng katta vakillaridan biri hisoblanadi. Mazkur turkum turlari an'anaviy tibbiyot, bog'dorchilik, o'simliklar evolutsiyasi va introgressiv gibrid turlarni o'rganishda muhim ob'yekt bo'lib hisoblanadi. Ushbu turlarning turli vegetativ organlarida mavjud bo'lgan ko'plab kimyoviy moddalar Xitoy va Hindiston xalq an'anaviy tabobatida saraton, yallig'lanish, bakterial va virusli kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan.

O'zbekiston florasida tarqalgan turlar morfologik jihatdan o'ziga xos va turlarga boy bo'lib, shu vaqtga qadar ular tashqi morfologik belgilariga tayangan holda identifikatsiya qilingan. Tabiiyki bu olib borilgan tahlillar turkum turlarining Iridaceae oilasi ichida joylashgan filogenetik o'rni haqida yetarli va aniq bilimlarni bermaydi. Markerlarga va to'liq xloroplast genomiga asoslangan holda olib borilgan tahlillar, turkumning filogeniyasi, biogeografiyasi, divergensiya vaqtlari hamda turkum ichidagi evolyutsion munosabatlarni aniqroq tushunish imkonini berdi. Olingan ma'lumotlar esa turkum ichidagi ost turkulardan *Iris* L. va *Scorpiris* Spach. monifiletik, *Limniris* (Tausch) Spach. ost turkumi polifiletik ekanligini ko'rsatdi.

So'nggi o'n yil ichida genomlarni ketma-ketlashtirishga bo'lgan qiziqishning

ortib borishi va xarajatlarning sezilarli darajada yuqoriligi sababli, hozirgi kunga qadar 465 ga yaqin o‘simlik genomiga mos yozuvlar ketma-ketligi yig‘ilgan (2024 yil mart holatiga ko‘ra; ([www.plabipd.de](http://www.plabipd.de))). Bugungi kunga kelib, *Iris* turkumi turlari o‘rtasidagi filogenetik munosabatlar xloroplast va yadroga genomik hududlar, masalan, ichki transkripsiyalangan spacer (nrITS), *matK*, *ndhF*, *trnL-trnF*, *trnQ-rps16* va *trnS-trnfM* kabilar asosida aniqlangan. Bu metodlar Iridaceae oilasi vakillarining ko‘pchiligi uchun qo‘llanilgan bo‘lsa-da, taksonomik qamrovning yetarli emasligi yoki ma‘lumot beruvchi saytlarning yo‘qligi sababli sinflar va yaqin turlar o‘rtasidagi filogenetik munosabatlar to‘liq o‘rganilmagan yoki ma‘lumotlar yetarlicha mavjud emasdir. Yaqinda butun xloroplast genomlarini filogenetik tahlil qilish, turlarni aniqlashda kerakli natijalarni olish uchun muqobil sifatida taklif qilindi. Keyingi avlod sekvensiyasi (NGS) texnologiyasining rivojlanishi va bioinformatika sohasidagi yutuqlar o‘simliklardan to‘liq plastid genom ketma-ketliklarini yig‘ishni yanada osonlashtirdi. Biroq, katta hajmdagi hisoblash quvvatiga bo‘lgan ehtiyoj va mablag‘ tufayli, past darajadagi filogeniyani tushuntirish va turlarni ajratish imkonini beradigan yetarli miqdordagi namunalardan butun plastid genomlarini ochish qiyin bo‘lib qolmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda O‘zbekiston florasida tarqalgan *Iris* turkumi turlarining to‘liq plastid genomiga asoslangan tahlili, turkum turlarining Iridaceae oilasi ichidagi filogenetik o‘rni, divergensiya vaqtlarini aniqlashga va turlarni aniqlash uchun maxsuys markerlar yaratish muhim ahamiyatga egadir.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentabrdagi 409-son “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-sentabrdagi 3256-son “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti va Zoologiya instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-son “2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda shu strategiyaning 10-, 14-, 72-bandlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Shimoliy yarim sharning mo‘tadil mintaqalarida keng tarqalgan *Iris* turkumining 343 turi ro‘yxatga olingan.

Turkum turlarining gibrizatsiyasi K. Emms, S. Hodges, M. Arnoldlar (1996); kladistik tahlillar C. Wilson (1998); markerlarga asoslangan filogenetik tahlillar T. Souza-Chies, G. Bittar, S. Nadot va boshq. (1997); molekulyar sistemik tahlillar G. Reeves, M. Chase, P. Goldblatt va boshq. (2000); markerlarga asoslangan filogenetik tahlillar N. Tillie, M. Chase, T. Hall va boshq. (2001); turlar tarqalishini aniqlash va bashorat qilish uchun ekologik

modellashtirish algoritmlari S. J. Phillips, R. E. Schapire va boshq. (2004), morfologik belgilar evolyutsiyasi C. Wilson (2006); filogeniya va biogeografiya P. Goldblatt, A. Rodriguez, M. Powell va va boshq. (2008); markerlarga asoslangan filogenetik tahlillar N. Ikkinchi, T. Hall, D. Lledo va boshq. (2011), J. Guo, C. Wilsonlar (2013), E. Mavrodiev, M. Martínez-Azorín, P. Dranishnikov va boshq (2014); turkum turlarining taksonomiyasi va filogeniyasi M. Crespo, M. Martínez-Azorín va E. Mavrodievlar (2015); markerlarga asoslangan tahlillar L. Jiang, Z. Huang, Q. Liao va boshq. (2018); iqlimiy va ekologik modellashtirish, bioiqlimiy ma'lumotlar ishlab chiqish S. E. Fick, R. J. Hijmans (2017), to'liq genomga asoslangan tahlillar R. Liu, Y. Gao, Z. Fan va boshq. (2020), Y. Kang, S. Kim, J. Lee va boshq. (2020) tomonidan o'rganilgan.

O'zbek botanik olimlari olib borgan floristik tadqiqotlarda turlarning hududlar kesimida tarqalishi bo'yicha F. Xasanov, N. Rahimova, A. Esanqulov va boshqalar (2013); A. Sennikov, F. Hassanov, K. Tojibayev (2023); K. Tojibayev, F. Karimov, M. Turgunovlar (2015); K. Tojibayev va O. Turgunovlar (2014) tomonidan ma'lumotlar keltirilgan.

2017-yilda O'zbekiston florasining Iridaceae oilasining ayrim turlarining bioekologik xususiyatlari M.D.Turg'unov tomonidan ilmiy tadqiqotlarda o'rganildi. Muallif tomonidan Toshkent botanika bog'ida ushbu oila vakillarining jonli ko'rgazmasi yaratilgan.

N.K. Rahimova va G.M. Duschanovalar tomonidan 2017-2020 yillarda turkum turlarining morfo-anatomik tuzilishi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Yuqorida qayd etilgan morfologik, molekulyar-genetik va taksonomik tadqiqotlar *Iris* turkumini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo ushbu tadqiqotlar O'zbekiston florasida tarqalgan *Iris* turlarining kam qismini qismini qamrab olgan. Shu nuqtayi nazardan, florada tarqalgan *Iris* turkumi turlarining taksonomik tarkibini aniqlash, "O'zbekiston florasini"ning yangi nashri uchun ma'lumotlar to'plash, noyob turlarni o'rganish va turkum turlarining filogenetik o'rni, divergensiya vaqtlarini aniqlash, endem turlar ro'yxatini shakllantirish, turlarning tarqalishini aks ettiruvchi xaritalar yaratish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Botanika instituti Molekulyar filogeniya va biogeografiya laboratoriyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "PFI-5 Hayot daraxti: O'zbekiston bir urug'pallalilari" davlat dasturi 2021-2024" dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston florasida tarqalgan *Iris* L. turkumi turlarining taksonomik tarkibi, morfologik xilma-xilligini, filogenetik o'rni va divergensiya vaqtlarini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

O'zbekiston florasida tarqalgan turlarning vegetativ va generativ organlaridagi morfologik belgilarini tirik namunalarda asosida o'rganish;

*Iris* L. turkumi turlarining to'liq xloroplast genomiga asoslangan filogeniyasi tahlil qilish;

O'zbekiston florasida tarqalgan *Iris* L. turkumi turlarining divergensiya

yoshini tahlil qilish;

**Tadqiqotning obyekti** O‘zbekiston florasida tarqalgan *Iris* turkumi turlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** filogeniya, morfologiya va divergensiya yosh tahlili hamda iqlim omillariga asoslangan holda bashoratlashtirish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarish davomida floristikaning marshrutli metodi asosida dala tadqiqotlari o‘tkazilib, o‘simlik to‘qimalaridan DNK, CTAB usulida ajratilgan va natijalar bioinformatik dasturlar yordamida qiyosiy tahlil qilingan. Zamonaviy usullar asosida GAT xaritalari va ma’lumotlar bazalari tuzilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston florasida tarkibida *Iris* turkumining 9 seksiya va 4 ostturkumiga kiruvchi 41 turni o‘z ichiga olganligi aniqlandi.

G‘arbiy Pomir-Oloyda tarqalgan turlarni birlashtiruvchi asosiy morfologik belgi ichki gultojibarglarining ovalsimon va rombsimon shakllarda, G‘arbiy Tiyan-Shanda tarqalgan turlar ichki gultojibarglarining uch qirraliligi, tashqi gultojibarglarini esa kichik qanotsimon shakllarga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotlar davomida *Scorpiris* ostturkumi vakillarida xloroplast genomining yuqori darajada polimorfizmini ko‘rsatuvchi gen hududlari aniqlandi.

Olingan filogenetik daraxtda *Scorpiris* ost turkumi turlari monofiletik, *Limniris* ost turkumi turlari polifiletik, *Iris* ost turkumi turlari monofiletik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi.

Turlarning yoshini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar davomida, Markaziy Osiyoning tog‘li xududlaridagi *Iris* turkumi turlarining divergensiya yoshi aniqlandi

Kelajakdagi iqlim o‘zgarishi senariylari *I. pseudocapnoides*, *I. victoris* va *I. austroschatkalica* turlarning tarixiy o‘sinh makonlari o‘z ahamiyatini yo‘qotib, kelgusidagi ekonishalari shimoliy hududlarni egallab, vertikal zonallikning yuqori (1400-1600m) hamda namchil zonalariga surilishi qayd etildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“O‘zbekiston florasini”ning navbatdagi yangi nashri uchun *Iris* turkumi konspekti va tahlili amalga oshirilgan;

TASH gerbariy bazasida saqlanayotgan va dala tadqiqotlari natijasida tayyorlangan jami 912 ta gerbariy namunalari asosidagi ma’lumotlar bazasi Bioxilma-xillik bo‘yicha ma’lumotlarning global tizimiga ([www.gbif.org](http://www.gbif.org), GBIF) joriy etilgan;

ajratib olingan to‘liq xloroplast genom ma’lumotlari xalqaro NCBI (National Center for Biotechnology Information) bazasiga joylashtirilgan va qayd raqamlari olingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** olingan natijalarning mahalliy va xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilganligi, shuningdek, turlarning taksonomiyasi, vegetativ va generativ organlaridagi morfologik belgilar va tarqalishini o‘rganish uchun O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH), Moskva (MW), Sankt-Peterburg (LE), gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalardan foydalanganligi, dala

tadqiqotlari natijasida yig'ilgan gerbariy materiallari va olingan DNK namunalari, shuningdek olingan genom ma'lumotlarini xalqaro bazalar rasmiy veb-saytida e'lon qilish bilan asoslanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "O'zbekiston florasida"ning yangi nashrining navbatdagi jildi uchun *Iris* turkumini qayta ishlash, turlarning geografik tarqalishini aniqlashtirish, turlarning tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalarini yaratish, shuningdek, O'zbekiston florasida tarqalgan *Iris* turkumi turlarining genom tahlillari amalga oshirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston florasidagi *Iris* turkumi turlarining genom ma'lumotlarni xalqaro NCBI bazasiga kiritilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekiston florasida tarqalgan *Iris* turlarini morfologik, molekulyar va filogenetik o'rganish natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekiston florasida tarqalgan *Iris* turkumining 35 turining 912 ta gerbariy namunalari asosidagi ma'lumotlar bazasi Bioxilma-xillik to'g'risidagi global ma'lumotlar tizimiga ([www.gbif.org](http://www.gbif.org), GBIF) kiritilgan (Global bioxilma-xillik ma'lumotlar bazasi sertifikat, [www.gbif.org](http://www.gbif.org), 2024-yil 26-iyuldagi 011-son guvohnomasi). Natijada O'zbekiston hududida tarqalgan turkum turlari joylashuvi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosida foydalanish imkonini bergan.

Tadqiqotlar natijasida *Iris* turkumining O'zbekiston florasida uchun endemik bo'lgan 4 turi *I. victoris* F.O. Khass., Khuzhan. & Rakhimova, *I. austrotschatkalica* Tojibaev, F. Karimov & Turgunov, *I. pseudocapnoides* Rukšāns, *I. hippolyti* (Vved.) Kamelin turlarining genom ma'lumotlari xalqaro NCBI bazasiga kiritildi va qayd raqamlari olindi (*I. victoris* NC\_068840, *I. hippolyti* OK138594, *I. pseudocapnoides* NC\_068839, *I. austrotschatkalica* NC\_068838). Natijada ushbu turlarni filogenetik shajara daraxtidagi joylashgan o'rni va biogeografik kelib chiqishi haqida fikrlarni yuritish va qo'shni ostturkum turlari bilan munosabatlarni o'rganish imkonini bergan;

2020-2023 yillar davomida O'zbekiston florasidan to'plangan *Iris* turkumiga mansub 27 turning 300 ga yaqin gerbariy namunalari TASH fondiga taqdim etilgan. Natijada, O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan noyob va endem turlarning yangi gerbariy namunalari TASHning O'rta Osiyo bo'limi kolleksiyasini sezilarli darajada kengaytirgan. O'zbekiston florasining axborot-tahliliy tizimiga taksonomiya, turlar nomenklaturasi, ekogeografiya va GAT asosidagi nuqtali xaritalari bo'yicha yangi ma'lumotlar kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 1 tasi xorijiy (Scopus va WOS bazalarida indekslangan) jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 88 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston florasida tarqalgan *Iris* L. turkumi turlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, tadqiqot ob‘ekti va metodlari”** deb nomlangan bobning birinchi bo‘limida *Iris* turkumining o‘rganilish tarixi, zamonaviy tadqiqotlar tahlili, O‘zbekiston florasidagi turlarining taksonomik va molekulyar o‘rganilishi, ikkinchi bo‘limida tadqiqot obyekti va metodlari yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Turkum turlarining genom tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida genom annotatsiyasi, xloroplast genom tuzilishi tahlili, turlarning takroriy uchastkalari tahlili, turkumi turlarining to‘liq xloroplast genomiga asoslanib qurilgan filogenetik daraxt tahlillari, turkum turlarining divergensiya yoshi tahlillari ustida olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Mazkur bobning birinchi bo‘limida, O‘zbekiston florasida tarqalgan 22 turdagi *Iris* turkumi turlarining to‘liq xloroplast genomidagi hududlar LSC, SSC, GC koeffisienti va takroriy hududlar, ularning bir biriga o‘xshashligi va farqlari ustida olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan (1 rasm. 6-ilova).


*Scorpiris* ostturkumi turlari uchun xalqaro NCBI bazasidan olingan genomlar uzunligi mos ravishda 150947-153724 bp tashkil etgan. Teskari takroriy hududlar 25549-26214 bp (IR), 81514-83127 bp LSC va 18169-18335 bp SSC mintaqalaridan iborat bo‘lgan juftlikdan iborat ekanligi qayd etildi. *Scorpiris* ostturkumi turlarining to‘liq genamlari orasida *I. rodionenkoi* (155 021) qolgan turlardan eng katta hajmi bilan ajralib turardi. Eng qisqa plastoma *I. austrotschatkalica* turida (150,887 bp) kuzatilgan, oradagi farq 4134 bp ni tashkil qilgan holda, *Scorpiris* turlarida genom uzunligi o‘zgaruvchan ekanligini ko‘rsatdi. *Limniris* ostturkumi turlarining to‘liq genamlari orasida *I. sogdiana* turning genomi (152402) qolgan turlardan eng kichik hajmi bilan ajralib turardi. Eng katta plastoma *I. loczyii* turida (150414 bp) kuzatilgan, oradagi farq 12 bp ni tashkil qilgan holda, O‘zbekiston florasida tarqalgan *Limniris* ostturkumi turlarida genom uzunligi o‘zgaruvchanligi juda yuqori emasligini ko‘rsatadi (6-ilova).

*Scorpiris* ostturkumi turlarining umumiy GC miqdori 37,9–38,1% ni tashkil etdi, IR hududlarida 43,0-43,1%, LSC mintaqalariga 36,0–36,3% va SSC mintaqalariga 31,5–31,7% ni tashkil etdi. *Limniris* ostturkumi turlarining umumiy GC miqdori 38,2–43,1% ni tashkil etdi, IR hududlarida 43,0-43,1%, LSC mintaqalariga 36,2–

36,6% va SSC mintaqalariga 31,6–31,9% ni tashkil etdi. *Iris* ostturkumi turlarining umumiy GC miqdori 37,9% ni tashkil etdi, IR hududlarida 43,1%, LSC mintaqalariga 36,06% va SSC mintaqalariga 31,5–31,6% ni tashkil etdi.

Bobning ikkinchi bo‘limida, turkum turlari nukleotidlarining takroriy hududlarini o‘rganishga qaratilgan tatqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Irlslarning O‘zbekiston florasida uchun endemik bo‘lgan to‘rtta turining 73 ta oqsil kodlovchi qismlariga asoslangan holda o‘rtacha ketma-ketlik xilma-xilligi butun genom uchun 0.4% va SSR 0.78 %, LSC 0.40% va IR uchun mos ravishda 0,10% ni tashkil etishi aniqlandi.


Nukleotidlarining eng yuqori o‘zgaruvchanligi quyidagi genetik hududlarda uchrashi qayd etildi: *rps16/trnQ-UUG*, *atpF/atpH*, *rps3/rpl22*, *trnK-UUU/rps16*, *rps15/ycf1*, *petA/psbJ*, *psbA*, *trnGCC*, *trnR-UCU/atpA*, *atpA/atpF*, *rps8/rpl14*, *trnL-UAA/trnF-GAA*, *trnG-UCC/trnR-UCU* va *psaA/ycf3* (1-rasm).



**1-Rasm.** Nukleotidlar xilma-xilligi (Pi) kodlanadigan hududlar (A) va kodlanmaygan hududlar (B).


Bobning uchinchi bo‘limi O‘zbekiston florasidagi *Iris* L. turkumi turlarining to‘liq xloroplast genomiga asoslangan filogeniyasi tahliliga bag‘ishlanadi. Olib borilgan ilmiy tatqiqot ishida O‘zbekiston florasida tarqalgan 24 tur, xalqaro NCBI bazasidan olingan 35 tur va tashqi guruh sifatida 6 ta tur, jami 65 tur olingan. Avval olib borilgan *Iris* turkumi turlarining filogeniyasi asosan ma‘lum bir markerlargagina asoslangan holda tahlil qilingan. Turkum turlarining filogenetik daraxtda joylashgan o‘rnini aniqlash maqsadida to‘liq xloroplastlarga asoslangan genomdan foydalanish, molekulyar evolyutsiya, oilalar va turkumlar ichidagi

filogenetik munosabatlar tahlilini olib boorish uchun yetarli ma'lumot beruvchi lokuslar mavjudligini ko‘rsatdi. Olingan filogenetik daraxtda Scorpirisning o‘n sakkiz turi A sinfidan iborat bo‘lib, unga *Crossiris* (= *Evansia*) *I. japonica* (= *Evansia chinensis*) va *I. tectorum* (= *Evansia tectorum*) turlari ham qo‘shilgan, *Iris* ost turkumiga kiruvchi 15 tur B sinfni tashkil etgan, *Limniris* ost turkumiga kiruvchi 21 tur C sinfni tashkil etgan (2 rasm).



**2-Rasm.** O‘zbekiston florasida tarqalgan *Iris* turkumi turlarining filogenetik o‘rni. To‘liq genomning CDS oqsil kodlovchi qismlariga asoslangan filogenetik daraxt. Bayes posterior ehtimoli (PP)/maksimal parsimonlik (MP) ulushi va maksimal ehtimollik (ML) foiz ko‘rsatkichlari berilgan.

Bobning to‘rtinchi bo‘limi turkumi turlarining divergensiya yoshi tahliliga bag‘ishlanadi. Unda O‘zbekiston florasida uchraydigan jami 22 turning to‘liq plastid genomiga asoslangan holda, ajralish yosh vaqtlarini o‘rganildi. Olingan natijalarga ko‘ra turkum turlari vakillari 37,4 million yil avval Kaynazoy erasi Paleogen davrining Eosin bosqichida, *Linniris* ost turkumini hosil qiluvchi va *Iris*, *Scorpiris*, *Xiphium* va *Hermodactyloides* vakillarini hosil qiluvchi ikki tarmoqqa ajralgan. Bu ikki tarmoqning birinchisidan Kaynazoy erasi Paleogen davrining Oligocen bosqichida 29,5 million yil oldin *Linniris* ostturkumi vakillari o‘z taraqqiyot davrini boshlagan. G‘arbiy Pomir-Oloyda tarqalgan *I. vicaria*, *I. hippolyti*, *I. vicaria*, *I. parvula*, *I. khassanovii*, *I. maracandica*, *I. victoris*, *I. svetlanae*, *I. magnifica*, *I. narbutii*, *I. rudolphii* va *I. warleyensis* turlar Neogen davri Miosin bosqichida 11,7 million yil avval ajralgan.



**3-Rasm.** Xronogramma to'liq genomning CDS oqsil kodlovchi qismlariga asoslangan holda BEAST tahlilidan olingan. Har bir tugunda o'rtacha farqlanish vaqti ko'rsatilgan.

Paleogen davrining iqlimiga shiddatli “ta’sirli qish” va keskin isish ta’sir ko’rsatdi, shu bilan birga erta va o’rta paleotsendagi nisbiy salqinlikning o’zgarishi va kuchli super issiqxona effektining boshlanishi Markaziy Osiyoda *Iris* turkumi turlari divergensiyasiga o’z ta’sirini o’tkazgan bo’lishi mumkin. Taxminan 39,4 Mya avval haroratning keskin pasayishi aniqlanadi (3-rasm). Global haroratning to’satdan sovib ketishi va yuqori kengliklarda mavsumiylikning oshishi, turkum turlarining ajralishiga sabab qilib ko’rsatish mumkin. O’sish davrining qisqarishi piyozli o’simliklarning rivojlanishiga yordam bergan bo’lishi mumkin.

Dissertatsiyaning “**Turkum turlarining konspekti va aniqlagich kaliti**” deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekiston florasida tarqalgan turlarning zamonaviy konspekti tuzildi, har bir turning o‘zbek tilidagi morfologik tavsifi yaratildi, O‘zbekiston hududida tarqalgan turlarning GAT xaritalari va 28 turning tabiiy morfologik illyustratsiyalari yaratildi (1-3 ilovalar).

Bobning birinchi bo’limida O‘zbekiston florasida tarqalgan *Iris* turkumning 40 turdan iborat konspekti keltirilgan. Konspektni tuzishda, 1911–2023 yillar davomida terilgan va hozirda TASH, LE, MW va FRU fondlarida saqlanayotgan

gerbariy namunalari (904) va muallifning 2020–2023 yillarda amalga oshirgan dala tadqiqotlari davomida yig'ilgan namunalariga (33 turdan 350 dan ortiq) asoslandi. Unda har bir turning ilk ilmiy manbasi, tip ma'lumotlari, fenologiyasi, ekologiyasi, areali, endemizmi, botanik-geografik rayonlar bo'yicha tarqalishi hamda yig'malarning kollektorlari keltirilgan. Shuningdek, har bir turning o'zbek tilidagi morfologik tavsifi berilgan. Konspekt formati "O'zbekiston florasida" loyihasi formatiga mos keladi.

Bobning ikkinchi bo'limida *Iris* turkumiga mansub bo'lgan turlarning morfologiya va filogenetik munosabatlarga asoslangan yangi identifikatsiya kaliti tuzildi. Hozirgacha turkumning morfologiyasiga oid olib tadqiqotlar ancha eskirganligi va so'nggi vaqtlarda botanik olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yangi turlarning fanga kiritilishi turkun turlari identifikatsiyasi kalitini yangilashni taqozo etar edi. Ushbu tadqiqotlar davomida TASH, LE, MW gerbariy kolleksiya fondlarida saqlanayotgan namunalar hamda GBIF va plantarium.ru elektron manbaalaridan olingan ma'lumotlar asosida turlar morfologiyasiga ko'ra tasniflandi

O'zbekiston florasidagi *Iris* turlari morfologik belgilarining murakkabligi va bo'linishiga ko'ra quyidagicha tasniflandi:

**I. Subgen. *Limniris*. (Tausch) Rchb. 9,7%**

Sect. *Sclerosiphon* (Nevski) Sennikov & F.O.Khass.,

1. *Iris songarica* Schrenk in Fischer & C.A.Meyer, Enum.

Sect. *Tenuifoliae* (Diels) Doronkin

2. *Iris loczyi* Kanitz

Sect. *Haloiris* Doronkin

3. *Iris lactea* Pall.

Sect. *Xyridion* Tausch, Hort.

4. *Iris spuria* L. 4 s-ya, 4 tur tashkil etadi.

**II. Subgen. *Iris* Tourn. ex L. 12,1 %**

Sect. *Hexapogon* (Bunge)

1. *Iris falcifolia* Bunge

2. *Iris longiscapa* Ledeb.

Sect. *Regelia* (Foster)

3. *Iris korolkowii* Regel

4. *Iris stolonifera* Maxim.

Sect. *Iris* G.H.M.Lawr.

5. *Iris alberti* Regel. 3 s-ya, 5 tur tashkil etadi.

**III. Subgen. *Scorpiris* Spach 73,1 %**

Sect. *Juno* (Tratt.) Maxim.

***Iris bucharica* aggr.**

1. *Iris bucharica* Foster

2. *Iris chrysopetala* Sennikov, F.O.Khass. & Pulatov

3. *Iris vicaria* Vved.

4. *Iris warleyensis* Foster

***Iris orchioides* aggr.**

5. *Iris orchioides* Carrière

6. *Iris tubergeniana* Foster
7. *Iris capnoides* (Vved.) T.Hall & Seisums
8. *Iris pseudocapnoides* Rukšāns
9. *Iris austrotschatkalica* Tojibaev, F.Karimov & Turgunov

***Iris kuschakewiczii* aggr.**

10. *Iris subdecolorata* Vved.

***Iris magnifica* aggr**

11. *Iris magnifica* Vved.

***Iris willmottiana* aggr.**

12. *Iris albomarginata* R.C.Foster

13. *Iris willmottiana* Foster

***Iris maracandica* aggr.**

14. *Iris hippolyti* (Vved.) Kamelin

15. *Iris maracandica* (Vved.) Wendelbo

16. *Iris svetlanae* (Vved.) T.Hall & Seisums

17. *Iris victoris* F.O.Khass., Khuzhan. & Rakhimova

18. *Iris petri* F.O.Khass., Rakhimova & Achilova

***Iris linifolia* aggr.**

19. *Iris parvula* (Vved.) Sennikov

20. *Iris tadshikorum* Vved.

21. *Iris khassanovii* Tojibaev & Turgunov

22. *Iris vvedenskyi* Nevski ex Woron. & Popov

23. *Iris linifolia* (Regel) O.Fedtsch.

24. *Iris linifoliiformis* (Khalk.) Tojibaev & Turgunov

***Iris narynensis* aggr.**

25. *Iris narynensis* O.Fedtsch.

***Iris narbutii* aggr.**

26. *Iris narbutii* O.Fedtsch.

27. *Iris rudolphii* F.O.Khass., Esankulov & Achilova

28. *Iris rodionenkoi* (Lazkov & Naumenko)

- b) *Physocaulon* (Rodion.) Mathew & Wendelbo

***Iris rosenbachiana* aggr.**

29. *Iris nicolai* Vved.

30. *Iris rosenbachiana* Regel. 2 s-ya, 30 tur tashkil etadi.

**IV. Subgen. *Hermodactyloides* Spach 4,8%**

- a) Sect. *Monolepis* (Rodion.) B.Mathew

1. *Iris kolpakowskiana* Regel

2. *Iris winkleri* Regel.

Olingan natijalarning ishonchlilik darajasini tekshirish maqsadida, alohida morfologik organlar, xususan ildiz shakli, barg tuzilishi, ichki va tashqi gultojibarglari shakli, rangi va o'lchamlari bo'yicha keltirilgan ma'lumotlar to'liq xloroplast genomiga asoslanib qurilgan filogenetik daraxtlarga mos kelishi tekshirildi (batafsil ma'lumot dissertatsiyada keltirilgan).

Dissertatsiyaning “**O‘zbekiston florasida tarqalgan endem turlarni bioiqlimiy modellashtirish**” deb nomlangan to'rtinchi bobida endem va kamyob

turlar tarqalishining bioiqlimiy modellashtirish natijalari keltirib o'tilgan. Iqlim stsenariylari bo'yicha hududlarni yaroqlilik ko'rsatkichlari keltirildi. Belgilab olingan 4 turga kelajakdagi iqlim stsenariylari RCP2.6\_2070s (minimal issiqxona gazlari) va RCP8.5\_2070 (maksimal issiqxona gazlari) asosida bashoratlashtirildi. Hozirgi va kelajakdagi senariylar bo'yicha olingan ehtimollik natijalarga ko'ra potensial fazoviy qamrov hududlari 1970-2000 yillar uchun va 2050-yildagi (RCP 2.6) va (RCP 8.5) senariylar bo'yicha olingan ehtimollik natijalarga ko'ra kutilayotgan natijalar tahlil qilindi.

## XULOSALAR

“O‘zbekiston florasida tarqalgan *Iris* L. turkumi turlari filogeniyasi” mavzusidagi falsafa doktori dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. O‘zbekiston florasidagi *Iris* L. turkumining taksonomik tarkibi 4 ostturkum, 9 seksiyaga mansub, 41 turdan iborat ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar “O‘zbekiston florasini”ning yangi nashrini tayyorlashda hamda O‘rta Osiyo turlarini keng ko‘lamli taksonomik, biogeografik va molekulyar-filogenetik tahlillarini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

2. *Scorpiris* ostturkumining G‘arbiy Tiyan-Shan va Pomir-Oloy qaynoq markazlarini mavjudligi nafaqat taksonomik tarkibining o‘ziga xosligida, shuningdek gul morfologiyasida ham namoyon bo‘ladi. G‘arbiy Tiyan-Shan turlarni ichki gultojibarglari uch qirrali, tashqi gultojibarglari esa kichik qanotsimon shakllarga ega bo‘lsa, G‘arbiy Pomir-Oloy turlari ichki gultojibarglarining ovalsimon va rombsimon shakllarda bo‘lishi bilan farqlanadi.

3. Morfologik belgilarni turkum turlari o‘rtasidagi filogenetik munosabatlarga qanchalik muvofiqligini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar *Scorpiris* ostturkumi vakillarida xloroplast genomining yuqori darajada polimorfizmini ko‘rsatuvchi gen hududlari mavjudligini ko‘rsatdi.

4. O‘zbekiston florasida tarqalgan 22 turning to‘liq genomidan ajratib olingan 73 ta oqsil kodlovchi gen ustiga filogenetik daraxt qurildi. Olingan filogenetik daraxtda *Scorpiris* va *Iris* ostturkumi turlari monofiletik molekulyar kladlar, *Limniris* ostturkumi turlari esa *Iris* turkumi ichida polifiletik molekulyar kladlar hosil qilishi aniqlandi.

5. Turlarning yoshini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Kaynazoy erasining Paleogen davri Oligosen bosqichida Markaziy Osiyoning tog‘li xududlaridagi *Iris* turkumi turlarining divergensiya jarayoni boshlangan va ushbu jarayon Neogen davrining Miotsen bosqichiga qadar davom etgan. Bu davr mobaynida yangi turlar shakllanishi sodir bo‘lib, evolyutsiya jarayonlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan.

6. Kelajakdagi iqlim o‘zgarishi senariylarining pastki va yuqori ta’sir darajalarida, G‘arbiy Tiyan-Shan va Pomir-Oloy hududlarida kam tarqalgan va endem (*I. pseudocapnoides*, *I. victoris* va *I. austrotschatkalica*) turlarning tarixiy o‘sish makonlari o‘z ahamiyatini yo‘qotishi va turlarining zamonaviy areallari shimoliy hududlardagi dengiz sathidan 1400–1600 m oralig‘dagi nisbatan sernam xududlarni egallashi bashorat qilinadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.В.39.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ**

---

**ИНСТИТУТ БОТАНИКИ**

**ОРТИКОВ ЭЛЕР АБДУМАДЖИДОВИЧ**

**ФИЛОГЕНИЯ ВИДОВ РОДА *IRIS* L., РАСПРОСТРАНЕННЫХ  
ВО ФЛОРЕ УЗБЕКИСТАНА**

**03.00.05 – Ботаника**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2022.2.PHD/B726.

Диссертация выполнена в Институте ботаники.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу [www.botany.uz](http://www.botany.uz) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net).

**Научный руководитель:**

**Хасанов Фуркат Оринбаевич**

доктор биол. наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Дусчанова Гулжон Мадримбаевна**

доктор биологических наук, профессор

**Аюбов Мирзакамол Собитжанович**

доктор философии по биологическим наукам,  
старший научный сотрудник

**Ведущая организация:**

**Наманганский государственный университет**

Защита диссертации состоится «21» февраля 2025 года в 13.<sup>30</sup> часов на заседании Научного совета DSc 02/30.12.2019.B.39.01 при Институте ботаники (Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Актовый зал Института ботаники. Тел.: (+99871) 262-37-95, факс (+99871) 262-79-38, E-mail: [botany@academy.uz](mailto:botany@academy.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники (зарегистрировано за № 62). Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан «10» февраля 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № 1 от «10» февраля 2025 года).



**К.Ш.Тожибаев**

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., академик

**У.Х.Кодиров**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, PhD, старший научный сотрудник

**Х.Ф.Шомуродов**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.б.н., проф.

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** На сегодняшний день молекулярная биология, в частности исследования на уровне ДНК, является одним из важных направлений, регулярно применяемых в систематике, селекции, эволюции, в сохранении и оценке биоразнообразия.

Молекулярная филогения позволяет точно идентифицировать виды, которые трудно классифицировать или неправильно размещены традиционными морфологическими методами. Это особенно важно для различения видов, которые схожи внешне, но различны генетически, что служит обновлению классификации и номенклатуры растений. Изучение генетического разнообразия растений важно для создания новых сортов и повышения их продуктивности. Молекулярная филогения помогает идентифицировать диких родичей сельскохозяйственных культур растений, с целью сохранения их генетических ресурсов и эффективного проведения селекционных работ. Молекулярная филогения растений изучает эволюционные взаимоотношения видов в экологической среде, что имеет значение для разработки стратегий сохранения биоразнообразия исчезающих видов.

Идентификация видов, с использованием традиционных методов по морфологическим признакам (строение цветка, листа, стебеля и т. д.) (ботаника) или по химическому составу (алкалоид, флавоноид, кумарин) не всегда дает ожидаемый результат. В таких случаях короткие стандартные последовательности генома (ДНК) считаются наиболее подходящим инструментом идентификации видов. Сохранение биологического разнообразия, охрана растений и их рациональное использование – одна из глобальных проблем в мире. Влияние изменения климатических условий, антропогенных и абиотических факторов на процессы, происходящие в экосистемах, требуют большего внимания к местному биологическому разнообразию и проведение научных исследований данной области.

Род *Iris* L. — один из крупнейших представителей семейства Iridaceae, включающей более 270 видов, распространенных в Евразии, Северной Африке и Северной Америке. Виды изучаемого рода являются важным объектом изучения традиционной медицины, садоводства, эволюции растений и интрогрессивных гибридных видов. Виды этого рода издревле использовались в китайской и индийской народной медицине для лечения рака, воспалений, бактериальных и вирусных заболеваний, благодаря богатому химическому составу и биологически активным веществам, присутствующим в различных вегетативных органах.

Представители рода *Iris* флоры Узбекистана, морфологически уникальны и богаты таксонами, которые до сих пор идентифицировались по внешним морфологическим признакам. Естественно, эти анализы не дают достаточных и точных знаний о филогенетическом положении видов рода в составе семейства Iridaceae. Анализы, основанные на маркерах и геноме

хлоропластов, способствуют более четкому пониманию филогении, биогеографии, времени дивергенции и эволюционных взаимоотношений внутри рода. Полученные данные показали, что подроды *Iris* и *Scorpiris* Spach. оказались монофилетическими, а подрод *Limniris* (Tausch) Spach. полифилетическим.

